

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

tizimining falsafiy jihatlar.....	106
-----------------------------------	-----

SIYOSAT

F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	110
J.S.Sotvoldiyev	
Sharq va G'arb siyosiy tamaddunida tinchlik va xavfsizlik masalasi talqini	114
T.A.Azizov	
Xorijiy tajribalar asosida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
A.To'xtasinov	
Inson manfaatlarini e'tirof etuvchi konstitutsiya	122
F.R.Ravshanov, X.Z.Muminovich	
Tarixiy geosiyosatda Markaziy Osiyo	128

TARIX

O.V.Mahmudov	
"O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari": tushuncha va muomalaga kiritishning ilmiy asoslari	136
Ф.Т.Баитова	
Политическая нестабильность как фактор возникновения народного восстания в Кокандском ханстве (1873-1876 гг.).....	147
X.X.Mamajonov	
Turkiya Respublikasidagi Temurshunoslik taraqqiyotida xorijdan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni	153
I.R.Tishabayeva	
Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va infratuzilmasining shakllanishi (1970–1990-yillar).....	157
X.L.Xolmirzayev	
"Jome ul-havodis" asari qo'lyozmalari va ularning tavsifi	162
O.B.Nizomiddinov	
Sovet davrida (1920–1930-yillar) Farg'ona vodiysida muzey va teatrlar faoliyati: madaniy o'zgarishlar tahlili	167
Sh.B.Muhiddinova	
Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot masalalari ingliz Aleksandr Byorns talqinida	171
M.A.Umarov	
Afg'oniston va Eronning sovet davlati bilan iqtisodiy sohadagi munosabatlarining qisqacha mazmun va mohiyati	176
S.G'.Nigmatova	
O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi xususiy o'quv markazlar faoliyati misolida	180
J.Axmedov	
Some considerations on the intangible cultural heritage of Karakalpakstan	184
X.P.Jurayev	
Xiva xonligi qishloq xo'jaligida donli ekinlar va ularga doir ayrim mulohazalar	189
H.S.Yusupov	
Xorazm Xalq Sovet Respublikasida "Madrasalar islohoti" dasturining qabul qilinishi va uning oqibatlarini	193
M.Q.Tolibboyev	
Xalq dostonlarida otlarning harbiy ishidagi o'rni (tarixiy-elshunoslik tahlili).....	197
X.X.Mamajonov	
Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi	201



UO'K: 058.833:316.36:398.3

BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOY HAYOT MASALALARI INGLIZ ALEKSANDR BYORNS TALQINIDA**ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ ИЗЛОЖЕНЫ АНГЛИЧАНИНОМ АЛЕКСАНДРОМ БЕРНСОМ****SOCIAL LIFE ISSUES IN THE EMIRATE OF BUKHARA AS EXPLAINED BY THE ENGLISHMAN ALEXANDER BURNS****Muhiddinova Shalola Bahodir qizi** 

O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada o'zbek davlatchiligining mang'it sulolasi boshqaruvi davrida Buxoro amirligiga tashrif buyurgan ingliz zobiti Aleksandr Byornsning yozib qoldirgan safarnomasida berilgan aholi va uning ijtimoiy tarkibi, bu yerda istiqomat qilgan millatlar va ularning o'ziga xos ko'rinishi va fe'l-atvori haqidagi ma'lumotlar tahlili aks etgan. Safarnoma turkumidagi asarlarda mualliflar kuzatuvchi va og'zaki ma'lumotlarni yetkazuvchi shaxs sifatida keltiriladi. Shuningdek, maqolada Buxorodagi eng quyi tabaqa hisoblangan qullarning taqdiri bilan birga bu yerda istiqomat qilgan yahudiy va hindlarga bo'lgan munosabat haqidagi ma'lumotlar ham keltirilgan. Bundan tashqari, Buxoro amirligining tub aholisi va ayollar haqida ham bir nechta ma'lumotlar qayd etilgan.

Аннотация

В статье анализируются сведения о населении и его социальном составе, проживавших там национальностях, их неповторимом облике и характере, приведенные в путевых заметках английского офицера Александра Бернса, посетившего Бухарский эмират в период правления династии Мангидов узбекской государственности. В работах категории «путешествия» авторы выступают в роли наблюдателей и устных передатчиков информации. В статье также приводятся сведения о судьбе рабов, считавшихся в Бухаре низшим сословием, а также об отношении к проживавшим там евреям и индийцам. Кроме того, зафиксированы некоторые сведения о коренном населении и женщинах Бухарского эмирата.

Abstract

This article analyzes the information about the population and its social composition, the nationalities that lived here, and their unique appearance and character, given in the travelogue of the English officer Alexander Burns, who visited the Bukhara Emirate during the rule of the Mangid dynasty of the Uzbek statehood. In the works of the travelogue series, the authors are cited as observers and oral information providers. The article also provides information about the fate of slaves, who were considered the lowest class in Bukhara, as well as the attitude towards Jews and Indians who lived here. In addition, several pieces of information are recorded about the indigenous population and women of the Bukhara Emirate.

Kalit so'zlar: Safarnoma, Aleksandr Byorns, aholi, yahudiylar, hindlar, fors qullari, qul bozori.**Ключевые слова:** Путеводитель, Александр Бернс, население, евреи, индийцы, персидские рабы, рынок рабов.**Key words:** Travelogue, Alexander Burns, population, Jews, Indians, Persian slaves, slave market.**KIRISH**

Hozirgi kunda o'zbek davlatchiligining haqqoniy tarixini birlamchi manbalar yordamida ochib berish ko'plab tadqiqotchilarning e'tibor markazidagi asosiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlarning katta qismi asosan milliy manbalarga tayangan holda olib borilayotgani esa ushbu masalaning dolzarbligini ko'rsatmoqda. Biroq, ushbu turdagi manbalar qatorida Turkiston hududiga tashrif buyurib, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini o'z kuzatuvlari asosida yoritib bergan sayyohlar asarlarining ham mavjudligi bu turdagi manbalar tadqiqning keng ko'lamda amalga oshirish lozimligini taqozo etadi. Bu boradagi ishlarda ayniqsa xorijiy sayyohlarning keng miqyosdagi tashrifidan iborat 19-yuzyilliklarga oid safarnomalari o'z qimmatini bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu turdagi safarnomalarga Buxoro amirligida bo'lib qaytgan xorijiy sayyohlar esdaliklaridagi ma'lumotlarni misol qilib keltirish mumkin. Ularda amirlik aholisi, uning etnik tarkibi, kundalik mashg'ulotlari, ularning ijtimoiy tabaqalari, haq-huquqlari va boshqa ko'plab shu kabi ma'lumotlari o'rin olgan. Ushbu turdagi ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan esdaliklardan biri ingliz leytenant Aleksandr Byorns(1805-1841)ning uch qismdan iborat safarnomasi hisoblanadi. Diplomat, sayyoh va tadqiqotchi sifatida yaxshi tanilgan Aleksandr Byorns, fors va hind tillarining bilimdoni sifatida Hindiston hukumati buyrug'iga asosan 19-yuzyillikda Buxoroga tashrif buyurgan ingliz josusi edi. Buxoro qo'shbegisiga o'zini Hindiston zobiti deb tanishtirgan Aleksandr Byornsning ushbu tashrifdan maqsadi Turkistonga olib boradigan yo'llarni aniqlash va o'rganish, Britaniya hukumatining bu yerdagi bozorlarni egallash imkoniyatini aniqlash edi. Shu maqsadda u 1831-yilda hukumatdan elchilik missiyasiga ruxsat oladi va Hindikush orqali Afg'oniston, Eron va Buxoroga safarga chiqadi[11:387]. U bir oy davomida Buxoroda bo'lib, bu yerning iqlimi, tabiati, shahar va tumanlari, kundalik hayoti va boshqa ko'plab masalalar qatorida bu yerda istiqomat qiluvchi aholining etnik tarkibi va ijtimoiy tabaqalanishi haqida o'zi guvoh bo'lgan va eshitgan ma'lumotlarini yozib qoldiradi. Aleksandr Byorns tomonidan yozib qoldirilgan bunday ma'lumotlar Buxoro amirligining 19-yuzyillikdagi tarixini batafsil tasvirlab berganligi bilan qimmatli hisoblanadi. Xususan, safarnomada keltirilgan Buxoroda yashagan millatlar, ularning tashqi ko'rinishi, kiyim-kechaklari, haq-huquqlari va majburiyatlari haqidagi ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Shuningdek, bu kabi safarnomalar qatoriga o'lkaga elchi, tadqiqotchi va sayyoh sifatida tashrif buyurgan Mir Izzatulloh, E.N.Adler va boshqa ko'plab shaxslarning asarlarini kiritish mumkin. Bu shaxslarning asarlaridan ham ma'lumotlarni qiyoslash va boyitish maqsadida foydalanildi va keyingi tadqiqotlarda bular haqida batafsil to'xtalib o'tiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Aleksandr Byorns Buxoro amirligi aholisi tarkibiga to'xtalar ekan, unda tub yerli musulmon aholidan tashqari, eronlik qullar, yahudiylar, ruslar, xitoylar va hindlar ham mavjudligini tilga olgan. Buni Aleksandr Byorns yozib qoldirgan quyidagi ma'lumotlar bilan izohlash mumkin: "Bu yerda kishi Eron, Turkiya, Rossiya, Tatar, Xitoy, Hindiston va Kobulning tub aholisi bilan suhbatlashishi, mahalliy aholi bilan bir qatorda atrofdagi cho'llardan kelgan turkmanlar, qalmoqlar va qozoqlarni uchratishi mumkin[1:273]". Bundan ko'rinib turibdiki, Buxorodagi tashqi savdo aloqalarining rivojlanganligi bu yerga turli davlatlardan kirib keluvchi kishilarning ko'p bo'lishi va istiqomat qilishiga keng yo'l ochgan.

Dastlab, o'zbeklar haqida to'xtalar ekan, Aleksandr Byorns ularni "jiddiy qiyofali, keng yuzli, tinchliksevar, tatar chehrali, oq tanli va ba'zilar kelishgan bo'lsa, ba'zilar, ayniqsa erkaklari keksa ko'rinuvchi va chiroyli emas[1:263]", deya ta'riflaydi. Muallif buxorolik o'zbeklar qiyofasini Qo'qon va Urganchda istiqomat qiluvchi o'zbeklardan farqlab shunday deydi: "Buxorolik o'zbeklarni fors qoni aralashgani tufayli zo'rg'a turk yoki tatar sifatida tanish mumkin. Qo'shni davlat Qo'qonda esa bu kamroq o'zgargan. Va Urganchning, ya'ni qadimgi Xorazmning mahalliy aholisida esa o'ziga xos bo'lgan dag'allik (keskinlik) bor[1:273]".

Aleksandr Byorns Buxoroda istiqomat qilgan aholining turli ijtimoiy tabaqa va millatlarga mansubligini nafaqat ularning qiyofasidan, balki ularning kiyimi, ayniqsa bosh kiyimidan ham yaqqol ajratib olish mumkinligini tilga oladi. Xususan, xorazmliklarni ularning qora qo'y junidan bo'lgan telpaklaridan, buxorolik musulmon aholini asosan oq rangli sallalaridan, yahudiylarni konussimon, hindlarni kichkina to'rtburchak bosh kiyimidan ajratib olish mumkin bo'lgan. Xitoyliklar esa ko'pchilikni tashkil etmagan bo'lib, ularning sochlari kesilgan va musulmonlar singari salla kiyib yurishgan.

Muallifning ijtimoiy tabaqalar haqida aytib o'tgan ma'lumotlari ham ahamiyatli bo'lib, unda amaldorlar, oddiy aholi va qullar haqida so'z yuritadi. Unga ko'ra amaldorlar zarbof to'nda yurishgan va boshqalardan farqli ravishda qal'a oldida ot minishi mumkin bo'lgan. Umuman, ot minish tartibi ham aholining ijtimoiy jihatdan farqlanishini aks ettirgan. Oddiy aholi orasida ola-bula naqshli ipak ya'ni, adras matosidan kiyim kiyish urfda bo'lib, xoh yayov, xoh otida bo'lsin ular balandligi bir dyum⁸ yoki shuning yarmicha bo'lgan poshnali oyoq kiyim kiyishgan. Muallif ta'kidiga ko'ra, oddiy aholi tarkibiga asosan savdogarlar va hunarmandlar kirgan.

A.Byornsning tilga olishicha, Buxoro amirligi aholisida shia mazhabidagilarga nisbatan nafrat mavjud bo'lgan. Shuning uchun ham ular amirlik aholisi tomonidan qul qilib sotilgan. Aholi

⁸ Dyum (niderlandcha: duim-bosh barmoq). 2,54 smga teng o'lchov birligi.

TARIX

dunyoqarashida shialar kofirlar bilan tenglashtirilib, ularni to'g'ridan-to'g'ri qul qilib sotilishiga diniy ulamolar ham fatvo berishgan. Qullar Eronning shimoliy viloyatlaridan ushlab kelinib[10:9], asosan turkmanlar tomonidan sotilgan. Buxoro amirligiga kelgan sayyohlar asarlarida ham qullar haqida ma'lumotlar o'z aksini topgan. A.Byorns Buxorodagi har to'rttadan uchta odamning kelib chiqishi qullarga borib taqalishini yozadi. Qullarning tutilishi ham o'ziga xos hodisa bo'lib, ba'zida butun bir qishloq qul sifatida ushlanib, qishloqdagi bir oila a'zolarining boshqa-boshqa odamlarga sotib yuborilganligi kabi ayanchli hodisalar ham uchragan[2:14,15]. Garchi qullar shafqatsizlarcha o'z yaqinlaridan va yurtidan ajratilib, olib kelib sotilsa-da, ularga nisbatan salbiy muomalada bo'linmagan. Aksincha, qullar o'z xo'jayinlarining ular bilan juda ham yaxshi munosabatda ekanligini ta'kidlab o'tishgan. Bu borada qullardan biri xo'jayini unga xotin sotib olib bermoqchi bo'lganligini ham aytib o'tadi[1:255]. Muallif Buxoroga turkmanlar orqali tutib olib kelingan fors va rus millatiga mansub bo'lgan qullar bilan bo'lgan suhbatlari va qul bozori to'g'risida batafsil yozib qoldiradi. Buxoroda shanba kuni tongda qul bozori bo'lib, o'ttiz-qirqta rastada qullar sotilgan. Ular ota-onalari va qanday qilib qo'lga tushganlari haqida og'zaki ma'lumot berishgan. Qulning sunniy emas, balki Eronda keng tarqalgan shia mazhabida ekanligi aniqlangach, uning tanasi tekshirilgan. Ularning tanasi tekshirilishiga sabab esa o'sha paytda Turkistonda keng tarqalgan moxov kasalligining bor yoki yo'qligini tekshirish edi. Shundan so'ng savdolashilgan va qul sotib olingan. Muallifning ta'kidlashicha, uch nafar fors millatiga mansub o'g'il bolalarning har biri 30 tildan sotilgan[1:281]. 18-yuzyillikning oxirida Amir Shohmurodning Eronga qilgan yurishida qamal qilingan to'rtta shahardan ikkitasining aholisi sunniy mazhabini qabul qilgani uchun omon qoldirilib, qolgan ikkita shahar yer bilan yakson qilingan. Urushda 18-ming kishi asirga olinib, qul qilib sotilgan. Bir qul yoki cho'ring bahosi 3-4 tilloga tenglashgan[10:9]. Bundan ma'lum bo'lishicha, qullarning narxi muttasil ravishda oshib borgan va faqat turkmanlar tomonidan tutilgan odamlar emas, balki urushlarda ham asirga olinganlar qul qilib sotilgan. Turkmanlar orasida o'z mulkini qullar soni bo'yicha baholash tizimi mavjud bo'lgan. Misol sifatida, bir turkman o'z otini uch erkak va bir o'g'il bola qul evaziga sotib olganligini va birini ikki qul qiz bahosiga sotib olganligini aytish mumkin[1:339]. Qul bozorida ruslar va xitoyliklar ham sotilganligi, lekin kam miqdorda bo'lganligi bayon etilgan[1:283]. Shu o'rinda, rus millatiga mansub bo'lgan qulning holatidan shuni bilish mumkinki, xo'jayinlar ma'lum miqdorda pul olish evaziga (7 tillo) qulga o'z kasbi bilan erkin shug'ullanish imkoniyatini bergan va ortib qolgan pulni qul o'ziga olib qolgan. Bundan tashqari, qullar xohlagan odami bilan hamsuhbat bo'lganlari va o'z davlatidagi siyosiy voqe'liklardan xabardorligi ularning ancha erkin bo'lganligini ko'rsatadi[1:294]. Shuningdek, qullar pul yig'ib, o'zini-o'zi ozod etishi mumkin edi. Qulchilik bilan bog'liq tartiblar nafaqat Buxoroda, balki Xiva xonligida ham rivojlangan edi. Eron shahzodalaridan biri Xiva xoniga xat bilan musulmonlar muqaddas deb bilgan to'rtta kitob: eski va yangi Ahd, Dovudning zaburlari va Qur'onni jo'natib, bulardan qullik haqidagi qonunlarni topib berishini so'ragan[1:344]. Umuman olganda, Eron davlati doimiy ravishda o'z fuqarolarini ozod qilishga harakat qilgan. Shu maqsadda 1844-yilda Erondan Buxoro amirligiga elchi sifatida yuborilgan Abbos Qulixon Amir Nasrullo bilan muzokaralar olib borib, mingdan ziyod fors qullarini ozod qilishga muvaffaq bo'ladi[9:18]. Shu kabi voqealar qullarning ozodlikka intilishi va keyinchalik jamiyatdagi mavqeining o'sib, o'z qobiliyatlarini namoyon qilish ortidan muhim davlat lavozimlarini egallay boshlashlariga turtki bo'lgan. Misol uchun, 20-yuzyillik boshlarida amir Abdulahadxon davrida qo'shbegi lavozimiga fors qullaridan chiqqan Jonmirzo, Abbos va keyin uning o'g'li Ostanaqul tayinlangan[6:31, 7:164]. Xuddi shu davrda qullarni ozod qilish borasida yangi harakatlar amalga oshirilib, bulardan biri qul va cho'rilar 10 yil davomida xizmatidan foydalanilib, keyin ularni ozod qilish tartibi edi[8:114].

Asarda shuningdek, Buxoroda yashagan hind savdogarlari va yahudiylari to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular o'ziga xos haq-huquqlar va cheklovlarga ega bo'lgan va shu bilan birga ularga bir xilda muomala qilingan. Yahudiylarning soni manbalarda turlicha keltirilgan. 19-yuzyillikning 30-yillarida Buxorodagi yahudiylarning soni 4000 kishi bo'lgan. 19-yuzyillik boshlarida tashrif buyurgan Mir Izatullohning ma'lumotlariga ko'ra, yahudiy oilalar soni 1000 tani tashkil etgan va Buxoro shahridagi Sallaxona darvozasi yaqinidagi mahallada istiqomat qilishgan[4:65]. 19-yuzyillik boshlarida Buxoroga tashrif buyurgan yahudiy millatiga mansub E.N. Adler ma'lumotiga ko'ra, xonlikda taxminan 20 ming yahudiy mavjud bo'lib, ular Marv orqali Erondan va ba'zilar Xivadan kelishgan[5:221]. Ular konussimon bosh kiyimi kiyib yurishgan. Ular Erondagi Mashhaddan kelganlar bilan birga mato bo'yash ishlari bilan shug'ullanishgan[1:275]. Shuningdek, ular ipak

to'qish, qassoblik va mayda savdogarlik kabi ishlar bilan ham shug'ullanishgan[4:65]. Boshqa manbada esa yahudiylar dehqonchilik bilan shug'ullanib paxta, uzum va tamaki yetishtirishgani, savdoda esa gilam savdosi hamda Batumi va Boku orqali Bombeydan hind choyini olib kelishgani to'g'risida ma'lumotlar mavjud[5:219]. Umuman olganda, buxorolik yahudiylar pul ishlab topish uchun ko'plab faoliyat turlari bilan shug'ullanganliklarini ko'rish mumkin.

Hindlar esa kichkina to'rtburchak bosh kiyimi va belbog' o'rniga arqon bog'lashgan. A.Byorns o'zbeklar hindlarni yoqtirishmaganliklari uchun ularga salla o'rashga ruxsat berishmaganligini aytib o'tadi[2:352]. Ular o'zlarining kamtarona ko'rinishi va o'qimishli xulqi bilan omma bilan muloqotdan o'zini saqlagan[1:274]. Bu ikkala aholi vakillari g'ayridinlar bo'lganligi sababli jizya solig'ini to'lashgan. A.Byorns ma'lumotlariga ko'ra bu yiliga 4 rupiyadan 8 rupiyagacha edi.19-yuzyillik boshlarida kelgan Mir Izzatulloh esa bu soliqni 1 tangadan 4 tangagacha bo'lganligini yozib qoldirgan[4:59-64]. Ular musulmonlarga jabr-zulm yetkazmasligi va qachonki hukmdor shahar bo'ylab o'tganda, saf tizgan holda unga sog'lik va farovonlik tilashlari kerak edi. Buxoroda hindlar soni 300 tani tashkil etgan[1:285]. Buxoro amirligida nisbatan diniy erkinlik bo'lganligini boshqa millat vakillarini islom diniga o'tishga majburlanmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan ham bilib olish mumkin.

Ma'lumki, Buxoro amirligi musulmon olamida yetakchi davlat mavqeida bo'lganligi sababli, o'z fuqarolarining shariat qonunlariga qat'iyon bo'ysunishiga kuchli ahamiyat bergan. Ayniqsa, ayollar masalasi nozik bo'lib, ularning tashqi dunyodan har tomonlama ajratilishi orqali islom dinida man etilgan turli nomaqbul ishlarning oldini olishga harakat qilishgan. Asarda buxorolik ayollar haqida ham ma'lumotlar yoritilib, ularning tashqi ko'rinishi haqida aytib o'tilgan. Ular ham, asosan ot ustida yurishi va paranji yopinishi haqida ta'kidlangan. Ayollarga muomala qilishda o'ta ehtiyotkor munosabatda bo'lingan, bu yerda hech kim ular bilan gaplashmasligi va agar ayol hukmdor haramidan bo'lsa, hatto u tomonga qarash ham ta'qiqlangan[1:276]. Shuningdek, ayollar oq kiyimdan ko'ra, ko'k kiyimni afzal ko'rish va e'tibordan chetda bo'lishni xohlashgani ta'kidlangan[1:262].

Safarnomada Buxoro aholisining fe'l-atvori, muomala va munosabatlari haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni ham uchratish mumkin. A.Byorns buxoroliklar bilan asosan bozorlarda suhbatda bo'lganini tilga oladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, bozorlar o'sha paytda savdo-sotiq qilishdan tashqari turli toifadagi odamlar bilan uchrashish va suhbat qurish, turli xil yangiliklardan boxabar bo'lish imkonini beradigan muhim hudud vazifasini o'tagan. Garchi unga qushbegi tomonidan ko'rgan-kechirganlarini qog'ozga tushirishga ruxsat berilmagan bo'lsa-da, Buxoro aholisi bilan suhbat qurib, ular bilan birga vaqt o'tkazish maqbul uslub ekanligiga amin bo'ladi.Asarda aholi "mohammedan" ya'ni musulmonlar deb tilga olingan. Buxoroliklar va umuman barcha musulmon aholisi bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan biri ular yonlaridagi odamga taklif qilmay turib, bir bo'lak non ham olib yeyishmasligi edi[1:252]. Bundan tashqari, ular "davlat ziyoda" (molingiz ko'paysin) va "umringiz uzoq bo'lsin" (umr daroz) kabi ijobiy so'zlarni ko'p ishlatishlari haqida aytib o'tilgan. Ular bilan birga o'tirishlaridan avval esa soqollarini silagan holda Qur'ondan "fotiha" yoki duo o'qishlari buxoroliklarning o'ziga xos jihatlari sifatida keltirilgan. Buxoroliklar bilan tanishish oson bo'lib, ularning hukmdor siyosatidan tortib bozorlardagi holatgacha bimalol suhbat qurishi, josus faqatgina ularning qal'alari va devorlarini o'lchashi mumkin deya fikrlashi ularning soddaligi, suhbatning qiymatini tushunmasligi bilan bir qatorda davlatda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy voqealarga nisbatan aholining befarq bo'lmaganligini ko'rsatadi[1:280]. A.Byorns Buxoroda juda nufuzli elchi va savdogar bo'lgan oilada mehmonga taklif qilingan. Muallif bu yerdagi mehmon kutish bilan bog'liq odatlardan taajjubini yashirmagan holatda quyidagilarni qayd etadi: "...ular issiq kun yarmida bir necha piyola choy ichishga majburlashdi. Bayramlarda o'zbeklarning ko'plab noijtimoiy odatlari bor, uy egasi xizmatkorga aylanadi va har bir taomni ko'tarib olib keladi; mehmonlarning barchasi ovqatni tugatmaguncha hech narsaga tegmaydi. Ular mehribon odamlar, lekin mutaassiblik ularning eng katta muvaffaqiyatsizliklaridir, bu esa ta'limning xatosidir". A.Byorns musulmonlarning o'z dinlariga haddan tashqari berilganliklarini bir necha o'rinlarda tanqid ostiga ham oladi. Masalan, bu mehmondorchilik davomida ruslarning o'z davlatlari va Buxoro orasida oltin qatlamlarini topishganligi va bu yerdagi musulmonlardan biri bu xazinlarni xudo haqiqiy mo'minlar ko'zlaridan yashirishi va yer yuziga yaqin kofirlarga ochib berishi[1:322,323]kabi fikrlari A.Byornsni yuqoridagi xulosaga olib keladi. Ya'ni bu yerda buxorolik musulmonlar o'z dinida bo'lmagan kishilarni dunyo boyliklariga ruju qo'yganligi sababli xudo bu boyliklarni ular uchun qadrli qilib qo'yganligini ta'kidlashgan. Ammo, A.Byornsning Buxoro qo'shbegisi ya'ni bosh vaziri bilan bo'lgan suhbatlari

TARIX

vazirning tashqi dunyo, zamonaviy ixtirolar haqida birmuncha xabardor ekanligini ko'rsatadi. Ulardan biri bosh vazirning undan keyingi kelishida unga ko'zoynak olib kelishni iltimos qilishi Yevropada bunday buyumlarning mavjudligidan xabardorligini ayon qiladi. Bundan tashqari, A.Byorns unga bergan sovg'alar, soat va Kashmir libosni hukmdorga bo'ysunuvchi sifatida qabul qilmasligi, u bergan kompasni esa qabul qilib uni hukmdorga taqdim qilish istagini bildirishi o'sha paytda Buxoro amiri bo'lgan amir Nasrullo (1826-1860) (asarda Bahodirxon deya tilga olingan) hokimiyatining qudrati bilan bog'liq edi.

XULOSA

Safarnomalar mintaqaning tarixi, etnografiyasi, geografiyasi va boshqa ko'plab sohalari bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni taqdim qiladi. Safarnomalarning mahalliy manbalardan farqli jihati shundaki, unda mintaqa aholisiga xos bo'lgan fe'l-atvor, yurish-turish va muomala madaniyati kabi jihatlarga katta e'tibor qaratilganligidadir. Bunga sabab, tub aholi ongiga singib ketgan odatiy xatti-harakatlar boshqa millat vakillari ko'zi bilan qaralganda qiziqarli bo'lishidadir. Bunday safarnomalardan biri hisoblangan A. Byorns asari o'zining Buxoro amirligi haqida har tomonlama boy ma'lumotlar taqdim qilganligi sababli alohida o'rganilishni taqozo qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Burns, Alex. Travels into Bokhara; being an Account of a Journey from India to Kabul, Tartary and Persia // London. John Murray, Vol. I. 1834.
2. Burns, Alex. Travels into Bokhara; being an Account of a Journey from India to Kabul, Tartary and Persia // London. John Murray, Vol. II. 1834.
3. Curzon N. George. Russia in Central Asia // London, Longmans, Greens and Co., 1889;
4. Mir Izzatulloh "Ahvali Safari Buxoro" - "Travels in Central Asia" Calcutta: Printed at the Foreign Department Press, Council House Street. 1872. P. 56.
5. Elkan Nathan Adler. Jews in Many Lands, Philadelphia: The Jewish Publication Society of America, 1905.
6. Тухтаметов. Т.Г. Россия и Бухарский эмират в начале XX в. Издательство «Ирфон».
7. Сухарева О.А. Бухара: XIX – начало XX в. Издательство «Наука». Москва, 1966.
8. Нормуродова Г.Б. Бухоро амирлиги ижтимоий қатламлари ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётдаги роли. Тарих фанлари доктори даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Тошкент – 2020.
9. Аббос Қулихон. Бухоро сафарномаси. Тошкент. 2019.
10. Файзиев Т. Бухоро хонлигида қул савдоси. "Ўзбекистон" нашриёти. Тошкент – 1970.
11. Ўзбекистон тарихига оид манба ва тадқиқотлар (XIX-XX аср бошлари). Тошкент "Nurafshon Business" 2022.